EMOTSIONAL INTELLEKTNING SHAXS QAROR QABUL QILISHDAGI O'RNI

Karimqulova Lobar Kamoliddinovna
Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti, Toshkent
Maratov Timur G'ayratovich
Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti, Toshkent

Zamonaviy psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, samarali qaror qabul qilish nafaqat kognitiv qobiliyatlarga, balki hissiyotlarni anglash va boshqarish mahoratiga ham bog‘liq. ,,Begona emotsiyalar"ning filtrlanishi, stress sharoitida risklarni baholash va emotsional axborotning mantiqiy xulosalarni shakllantirishdagi roli yoritilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yuqori EI darajasi impulsiv qarorlarning oldini oladi va ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.

Material metodlar.

Tadqiqotda jami 20 nafar ishtirokchi qatnashdi. Guruh tarkibi asosan qaror qabul qilish jarayonida faol ishtirok etuvchi mutaxassislardan shakllantirildi.

Qo‘llanilgan metodikalar:

Tadqiqot maqsadiga erishish uchun quyidagi 3 ta so‘rovnomadan foydalanildi:

N. Xoll so‘rovnomasi: Respondentlarning emotsional intellekt (EI) darajasini (emotsional xabardorlik, boshqaruv, empatiya) aniqlash uchun. *A. Skott va R. Bryus (GDMS) testi:* Qaror qabul qilishning ustuvor uslublarini (ratsional, intuitiv, qochuvchi va b.) aniqlash uchun. *L. Reiman* tomonidan ishlab chiqilgan "Stressga chidamlilik" testi: Emotsional barqarorlikning bosim ostida qaror qabul qilishga ta’sirini baholash uchun.

Natijalar

So‘rovnomalar 20 nafar respondent o‘rtasida o‘tkazilgan tahlili shuni ko‘rsatdiki, ishtirokchilarning 30 foizi yuqori, 50 foizi o‘rta va 20 foizi quyi emotsional intellekt

(EI) darajasiga ega. Tadqiqotda aniqlanishicha, yuqori va o‘rta EI ko‘rsatkichiga ega bo‘lgan respondentlarning 70 foizi qaror qabul qilishda ratsional (mantiqiy) uslubga tayanadi. Aksincha, quyi EI darajasidagi ishtirokchilarning 65 foizida hissiyotlarga berilish oqibatida *spontan* va qaror qabul qilishdan qochish uslublari ustunlik qilishi ma’lum bo‘ldi. Shuningdek, yuqori EI darajasi stressli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish ehtimolini 85 foizgacha oshirishi statistik jihatdan o‘z tasdig‘ini topdi. Bu esa emotsional intellekt shaxsning oqilona va barqaror qarorlar qabul qilishida asosiy strategik resurs ekanligini isbotlaydi.

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, nazariy va empirik tadqiqotlar emotsional intellekt (EI) shaxsning qaror qabul qilish jarayonida mantiqiy tahlilni to‘ldiruvchi va optimallashtiruvchi asosiy omil ekanligini ko‘rsatdi. Respondentlar o‘rtasidagi tahlil natijalari EI darajasi yuqori bo‘lgan shaxslarda ratsional qaror qabul qilish moyilligi kuchli ekanligini, impulsiv va xato qarorlar ulushi esa sezilarli darajada pastligini isbotladi. Xususan, emotsiyalarni boshqarish qobiliyati stressli vaziyatlarda kognitiv resurslarni saqlab qolishga va "begona" hislarni filtrlashga yordam beradi. Shaxsning qaror qabul qilish samaradorligini oshirish uchun nafaqat uning professional bilimi, balki emotsional intellektini rivojlantirish ham strategik ahamiyatga ega.